

Yevropa Ittifoqi – O'zbekiston: Barqaror energiya kunlari

Xalqaro konferentsiya

O'zbekistonda energiya samaradorligi: istiqbollari va muammolar
Radisson Blue mehmonxonasi, Toshkent, 27 iyun 2023 yil

Yevropa Ittifoqida yakuniy iste'molning energiya samaradorligini oshirish uchun umumiy strategik va huquqiy asoslar

Ilze Purina, Energetika sektorini boshqarish sohasidagi asosiy mutaxassis, SECCA


"Birinchil navbatda energiya samaradorligi" tamoyili (EE1st) (1)

- **Energiya samaradorligi** nafaqat Yevropa Ittifoqining iqlim maqsadlariga erishish, balki qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan ta'minlash va ulardan foydalanish xavfsizligini yaxshilashning asosiy tamoyillaridan biridir.
- **EE1st ga** odatda energetika sohasidagi strategiyalar, rejalar va investitsiyalarni ishlab chiqishda **boshqaruvchilik tamoyili** sifatida tayaniladi.
- Unga ko'ra, energiya samaradorligi **mustaqil energiya manbai** bo'lib, unga davlat va xususiy sektor boshqa murakkabroq yoki qimmatroq energiya manbalarigadan oldin sarmoya kiritishi mumkin.
- Bunga strategik maqsadlarga erishish uchun energiya infratuzilmasiga sarmoya kiritishdan ko'ra tejamkorroq bo'lgan taqdirda **talab qilinadigan yechimlarga ustuvorlik berish** kiradi.

"Birinchida navbatda energiya samaradorligi" tamoyili (EE1st) (2)

- **EE1st tamoyili** Reglamentga (Yevropa Ittifoqi 2018s) rasmiy ravishda kiritilgan bo'lib, u rasmiy ta'rifni o'z ichiga oladi va a'zo-davlatlardan o'zlarining Milliy energiya va iqlim rejalarida (MEIR) EE1stni amalga oshirish to'g'risida hisobot berishlarini talab qiladi.
- U, asosan, quyidagi hollarda investitsiyalarni **ko'rib chiqish va ustuvorligini aniqlashga** mo'ljallangan:
 - ✓ talab tomonidagi resurslar (yakuniy iste'molning energiya samaradorligi, talabga javob berish va boshqalar).
 - ✓ standart energiya infratuzilmasiga qaraganda **arzonroq yoki ko'proq foyda keltiradigan holatlarda** ta'minot tomonidan energiya samaradorligi

Yevropa Ittifoqida energiya siyosatini rejalashtirish jarayonining evolyutsiyasi



Energetika va iqlim bo'yicha kompleks milliy rejalar (EIKMR)

EIKMR 2021 – 2030 yillar uchun
2050 yilgacha bo'lgan istiqbol bilan



Besh (5) o'lchov:

- **Energiya xavfsizligi**
- **Energiya samaradorligi** asosiy energiya manbai sifatida
- **Qayta tiklanadigan energiya manbalarini dekarbonizatsiyalash** va rivojlantirish
- **Bozor integratsiyasi**
- Transchegaraviy aloqalar
- Yagonalashtirilgan bozor qoidalari
- **Energiya qashshoqligiga qarshi kurash** va iste'molchilarning muammolarini kamaytirish
- Yangi texnologiyalar uchun **tadqiqotlar va innovatsiyalar**

1-o'lchov: Energiya xavfsizligi

- Ta'minot ishonchliligi bilan bog'liq **o'rta va uzoq muddatli maqsadlar va standartlar**, shu jumladan energiya manbalari va etkazib beruvchi mamlakatlarni diversifikatsiya qilish, infratuzilma, saqlash, talabga javob berish, ma'lum bir energiya manbasini etkazib berishdagi cheklovlar yoki uzilishlarga dosh berishga tayyorlik va muqobil ichki manbalarni joylashtirish
- Maqsadlar **mintaqaviy hamkorlikni** o'z ichiga olishi kerak, ushbu maqsadlarga erishish uchun esa, siyosiy choralar **mintaqaviy darajada muvofiqlashtirilishi** kerak



2-o'lchov: Energetika bozori

- **Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa davlatlar va Energetika hamjamiyatining Ahdlashuvchi tomonlari bilan aloqani ta'minlash uchun infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq siyosat va rejalar** (Energetika hamjamiyati Yevropa Ittifoqidan tashkil topgan xalqaro tashkilot bo'lib, Yevropa Komissiyasi, Albaniya, Bosniya va Gertsegovina, Gruziya, Shimoliy Makedoniya Respublikasi va Kosovo*, Moldova, Chernogoriya, Serbiya va Ukraina Ahdlashuvchi tomonlar sifatida tan olingan).
- **Bozor integratsiyasi**, energetika sohasida moslashuvchanlikni joriy etish, aqlli texnologiyalar va aqlli tarmoqlarni joriy etish bilan bog'liq **siyosat va maqsadlar**

3-o'lchov: Energiya samaradorligi

- Yevropa Ittifoqida **energiya samaradorligining kelajakdagi maqsadli ko'rsatkichlariga** erishish bilan bog'liq **mavjud va rejalashtirilgan siyosat va chora-tadbirlar**
- **Qurilish sohasida** energiya sarfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar va rejalarga **alohida e'tibor** (ya'ni, binolarni rekonstruksiya qilish va investitsiya dasturlari)
- 2030 yilgacha bo'lgan **traektoriyani ishlab chiqish va miqdoriy baholash**, shu jumladan rejalashtirilgan energiya tejamkorlik va yakuniy iste'mol
- Traektoriya Yevropa Ittifoqining energiya samaradorligi sohasidagi maqsadlariga erishishdagi milliy hissani belgilashi kerak

4-o'lchov: Iqtisodiyotning dekarbonizatsiyasi

- 2030 yilga mo'ljallangan maqsadlarga erishish uchun barcha yirik emitent-sektorlarda **PG tashlamalarini kamaytirish** bilan bog'liq **siyosat va chora-tadbirlar**:
- Yevropa Ittifoqida (masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar) va Parij kelishuvi doirasida milliy belgilangan hissalar (MBH)
- Shuningdek, ular 2050 yilda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish istiqbollari, shu jumladan **qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushining traektoriyasini**, elektr energiyasiga bo'lgan talabni, tegishli elektr energiyasini ishlab chiqarish texnologiyalarini o'z ichiga olishi kerak.
- **Transport dekarbonizatsiyasini** qo'llab-quvvatlash uchun rejalashtirilgan milliy siyosat va chora-tadbirlar

Milliy energiya va iqlim rejasi (MEIR) tarkibi

Ta'riflovchi qism

Joriy vaziyat - milliy energetika tizimi va besh o'lchov bo'yicha milliy rejaning siyosiy kontekstiga sharh.


Beshta o'lchov bo'yicha maqsadlar, siyosat va chora-tadbirlar

Analitik asos

Kompleks prognozlar va ko'rsatkichlar-bu rejaning analitik asosi sifatida prognozlarga bag'ishlangan alohida bo'lim, shu jumladan tavsiya etilgan siyosat va chora-tadbirlarning tegishli ta'sirini baholaydigan etalon va siyosiy stsenariylar.



Amalga oshirish jarayoning va natijalarining doimiy monitoringi



Energetika va iqlim bo'yicha keng qamrovli milliy rejalar (2021-2030) (2020 yildan ancha oldin tayyorgarlik ko'rilgan)

Amalga oshirish jarayoni to'g'risida milliy hisobotlar (2023 yildan boshlab, har ikki yilda)

Yevropa komissiyasi tomonidan monitoring (energetika Ittifoqini ishlarining holati)

Milliy energiya va iqlim rejasi - bu tashvishli yuk emas, balki imkoniyat!

- Davlat sektori uchun - **davlat xarajatlarini tejash**
- Korxonalar uchun - **raqobatbardosh bo'lish**
- Odamlar uchun - **yanada qulay sharoitlarda yashash**
- Hamma uchun - kichik loyihalarni **MFO** va donorlar uchun yanada jozibador bo'lgan dasturlarga birlashtirish orqali loyihalarni amalga oshirish uchun **ko'proq mablag'** jalb qilish

